

«FORS TILIDAN O‘ZLASHGAN SO‘ZLAR»

Sirdaryo viloyati Boyovut tumani

50- umumiy o’rta ta’lim maktab ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Djurayeva Surayyo Ravshanovna

Annotatsiya: O‘zbek tiliga Fors tilidan o‘zlashgan so‘zlar yuzasidan fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlari: fe’l zamonlari, fonetika, morfema, qo‘shma otlar, yasama so‘zlar.

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda xususan O‘zbekistonga ko‘plab innovatsion texnologiyalarga e’tibor kuchaymoqda shu jumladan to‘xtovsiz taraqqiy etib, boyib borayotgan o‘zbek tilimizda buning yorqin isbotini ko‘rishimiz mumkin. Tilimizning so‘z boyligining oshib borishiga o‘z va o‘zlashgan qatlam so‘zlarining hissasi katta, albatta. O‘zbek tilining o‘z qatlam so‘zlariga to‘xtaladigan bo‘lsak, ko‘plab so‘zlarining asosi arab va fors tillaridan kirib kelgan, biroq hozirda ularning ko‘p miqdori yaxlidlanib qolgan. Hozirgi fors tili Eronning davlat va adabiy tilidir. Fors adabiy tilining tayanch dialekti – Tehron dialektidir. Fors tili o‘zaro qarindosh bo‘lgan boshqa tillar bilan birgalikda hind – yevropa tillariga mansub bo‘lgan eroniy tillar guruhiga kiradi. Eron tillari ba’zi bir fonetik va Grammatik hususiyatlariga ko‘ra g‘arbiy va sharqiy guruh eroniy tillariga bo‘linadi.

1.G‘arbiy guruh eroniy tillariga fors, tojik, beluch, kurd, va Kaspiy bo‘yi tillari (gilon, mozandaron, semnon, tolish, tot) va bishqa tillar kiradi.

2.Sharqiy guruh eroniy tillariga afg‘on (pushtu), osetin, yag‘nob, va pomir tillari (shug‘non, voxon, zeboki, munjon) va boshqa tillar kiradi. Hozirgi fors tili o‘z yozuviga ega bo‘gan eng qadimiylardan biridir. Qadimiylardan eramizdan avvalgi VI asrda Ahamoniylar sulolasining rasmiy tili hisoblanib kelingan. IX asrdan XV asrgacha bo‘lgan davrda O‘rta Osiyo va Eron xalqlarining tarixida ilm va madaniyat, adabiyot va she’riyat yuksak darajaga ko‘tarilgan davr bo‘ldi. Bu davrda ijtimoiy fanlar, tabiiy fanlar

kabi sohalarda olib borilgan katta ilmiy tadqiqotlar asosida o‘lmas asarlar yaratildi. Bu asarlarni yaratgan Muhammad Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobi kabi olimlarning nomlari jahonga mashhurdir. Demak, o‘sha davrda fors tili O‘rta Osiyo xususan yurtimizda iste’molda bo‘lgan. Hozirgi fors tilida ishlataladigan ko‘plab so‘zlar o‘zlashgan holda saqlanib qolgan hali ham iste’molga yaroqliligin yo‘qatmagan. So‘zlarning ayrimlari o‘z xususiyatini yo‘qatgan holda tilimizda so‘z yasovchi element sifatida saqlanib qolgan holatlarni kuzatishimiz mumkin. Hozirgi o‘zbek tilida shaxs otini yasovchi qo‘sishimchalarga ko‘p duch kelamiz. Ularning kelib chiqishi haqida esa ma’lumotga ega emasmiz. Xususan, fors tilidan o‘zlashgan ko‘plab so‘zlar asosan shaxs oti yasovchi qo‘sishimchalar sirasiga kiradi.

Fors s+forsm

O’zbs+forsm

formulasi orqali ko‘rishimiz mumkin. Ularni quyidagi hollarda ko‘rish mumkin.

Oshpaz, somsapaz, mantipaz so‘zları hozirgi o‘zbek tilida **-paz**, qo‘sishimchasi orqali yasama shaxs oti yasalgan. Fors tilida esa **-paz**, so‘zi **po‘rsidan** fe’llining hozirgi zamon fe’l negizida pazga o‘zgaradi. Ma’nosi- pishirmoq, pishmoq. Hozirgi o‘zbek tilida esa bu shaxs oti yasovchi so‘z yasovchi qo‘sishimcha sifatida olinadi Soatsoz, kemasoz, so‘zi hozirgi o‘zbek tilida **-soz**, qo‘sishimchasi orqali shaxs oti yasalgan. Fors tilida esa soz so‘zi so’xtan fe’llining hozirgi zamon fe’l negizida sozga o‘zgaradi. Ma’nosi - yasamoq, tuzatmoq...

Gazetxon, kitobxon so‘zilaridagi **-xon** qo‘sishimchasi ham Fors tilidagi **-xondan** fe’llining hozirgi zamon fe’l negizida xonga o‘zgarishidan hosil bo‘lgan....

Dorboz, qimorboz,morboz so‘zlaridagi boz qo‘sishimchasi Fors tilidagi boxtan fe’llining hozirgi zamon fe’l negizida bozga o‘zgarishidan hosil bo‘lgan. Ma’nosi o‘ynamoq, o‘ynatmoq.

Sartarosh so‘zi esa hozirgi o‘zbek tilidagi tub so‘z sifatida olsak. Fors tilida esa **-sar** bosh ma’nosida, tarosh so‘zi taroshidan fe’llining hozirgi zamon fe’l negizida tarosh ga o‘zgarishidan hosil bo‘lgan. Ma’nosi yo‘nmoq ,qirmoq.

Ushbu so‘zlar tilimizda o‘zlashib o‘rnini egallagan. Yurtimiz ko‘p millat va elatlari xalqligini inobatga oladigan bo‘lsak, chetdan kirib kelgan so‘zlar haqida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Hojiyev. Lingvistik terminlarning izohli lug`ati .T – 1985. 158. 81-bet
2. A. Nurmonov. O`zbek tilshunosligi tarixi. Toshkent –“O`zbekiston”-2002. 156-b.
3. A. Nurmonov. Tanlangan asarlari. Toshkent – “Akademnashr”-2012.403-b. 1-jild.
4. Рахматуллаев III. Узбек тилида тобе боғланишнинг турлари. Т.,«Университет»,1993.
5. H.Dadaboyev, Z.T. Xolmonova Turkiy tillarning qiyosiy-tarixixiy grammatikasi // o`quv qo'llanma. T.: “Tafakkur Bo`stoni”, 2015. 150-b.
6. M. Abdusamatov. Fors tili va grammatikasi. Toshkent. --"Akademnashr " 2000. 317-bet.